Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanadi

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to’g’risida”gi qarori qabul qilindi.

O’zining noyob asarlari hamda olamshumul kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo’shgan buyuk mutafakkir va qomusiy olim, Ilk Renessans davrining yorqin namoyandasi Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma’rifiy merosini yanada chuqur o’rganish va keng targ’ib qilish, ushbu yo’nalishda tadqiqotlar olib borayotgan yetakchi xalqaro ilmiy markazlar bilan yaqin hamkorlik o’rnatish, shuningdek, Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash maqsadida qator vazifalar belgilandi.

Xususan, mazkur qaror bilan Fanlar akademiyasining Qoraqalpog’iston bo’limi va Xorazm Ma’mun akademiyasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularda madaniy meros ob’ektlari, shu jumladan, arxeologiya merosi ob’ektlari, muzey ashyolarini restavratsiya va konservatsiya qilishga ixtisoslashgan laboratoriya tashkil qilish hamda ularni zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash hamda Abu Rayhon Beruniy merosini o’rganish maqsadida xalqaro miqyosda keng ko’lamli ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e’lon qilish, shu mavzuda ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish, xorijiy olimlarning asarlarini o’zbek va qoraqalpoq tillarida nashr qilish belgilandi.

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy siymosi tushirilgan pochta markalari va konvertlar yaratiladi, kumush va oltin yubiley tangalari muomalaga chiqariladi.

Respublikamizdagi Abu Rayhon Beruniy nomi bilan bog’liq obida va qadamjolarni, shu jumladan, Abu Rayhon Beruniy sharafiga o’rnatilgan yodgorlik majmualarini mukammal ta’mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish, “Buyuk Beruniy merosi” xalqaro sayyohlik marshrutlarini yo’lga qo’yiladi.